



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 2 (4)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali 2-son 2026 yil*

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

2

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Аслонов С.М., Амиджанова М.М. Развитие бизнес-идей (стартапов) предпринимательской деятельности в Республике Таджикистан.....	7
Умаров И.Ю. Современные тенденции инновационного развития пищевой промышленности Узбекистана.....	13
Akbaraliyeva D., Mirzamahmudova M. Bank tizimi tarixi va rivojlanishi.....	16
Mamajonova N.A. Qurilish korxonalarida innovatsion boshqaruv faoliyati samaradorligini baholash ko‘rsatkichlari arxitekturasi.....	22
Ahmadkulov D.R., Xamrayev O.Y., Khattobov U.B. Kriptovalyutaga soliq solishda jahon tajirabasi va muammolar.....	25
Toshpulatov A.M. Qurilish materiallari sanoati korxonalarining ishlab chiqarish hajmini baholash usullari.....	30
Bahromov Sh.F. Jahonda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning (TXXI) iqtisodiy rivojlanish bilan bog‘liqligini tahlili.....	34
Kalmuratov B., Izzetov B., Yusupova J., Shamuratova A. Calculation in econometric models of human capital financing in innovation management in Uzbekistan.....	39
Sultonov B.M. Oilaviy korxonalar faoliyatini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmiga ta‘sir etuvchi omillar va ularni baholash asoslari.....	43
Юсупов М.Х. Фарғона вилояти маҳаллаларида ижтимоий омилларнинг иқтисодий барқарорликка таъсири: демография, гендер ва миграция таҳлили.....	47
Жаббаров К.Й., Жалолов И.Х., Эркинов М.Д. Молиявий ҳисобот тизимининг моҳияти ва шаклланиш бошқичлари.....	57
Гулямова Н.Х. Саноат корхоналарини инновацион ривожланиши ва миллий иқтисодиёт ўсиши.....	61
Arziboyeva R.S. Banklarda asosiy vositalar va mablag‘lar hisobini takomillashtirish.....	64
To‘raboyev Q.Q. Raqamli iqtisodiyot sharoitida mamlakatimizda soliq tizimini modernizatsiya qilish va sun‘iy intellekt hamda Big Data yordamida nazorat.....	67
Tojiboyev I.I. Raqamli biznes va elektron tijoratni soliqqa tortishning dolzarb masalalari va yechimlari.....	70
Xolmirzayev I.O. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari faoliyatining rivojlantirishning iqtisodiy yo‘llari.....	74
Saidova M.J. Sanoat tarmoqlari transformatsiyasi sharoitida texnologik eskirish va modernizatsiya muammolari.....	79
Usmonova N.A. Andijon viloyatida kichik korxonalar faoliyat samaradorligiga ta‘sir etuvchi omillarni statistik va ekonometrik tahlil qilish.....	83
Xaydarov M.T., Jannazarova G.K. Bozor infrastrukturasi va uning rivojlanish istiqbollari.....	87
Худайназарова Д.Г. Фармацевтика корхоналарида харажатларга доир ахборотларни бухгалтерия ҳисоботларида очиб бериш тартибини такомиллаштириш.....	93
Madaminov A.M. O‘zbekistonda sanoat tarmoqlari faoliyatida oziq-ovqat sanoati rivojlantirish istiqbollari.....	99
Zufarova G.A. Kambag‘al va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish masalalari.....	103
Ergashev I.I. Kichik korxonalar investitsiyaviy jozibadorligini samarali boshqarishda jahon amaliyoti tajribasi.....	106
Sativaldiyeva G.X. Ijara munosabatlarini mohiyati, ahamiyati va tasniflanishi.....	110
Kamilova A.N. Sanoat korxonalarida mehnat unumdorligini oshirishda mehnatni normalashtirish tizimining o‘rni va ahamiyati.....	115
Базарова Г.Г. Занятость населения в Узбекистане – теоретико-методологические основы анализа и практические механизмы решения проблем.....	119
Turabov B.T. Byudjet taqchilligi va xalqaro moliyaviy oqimlarning ta‘siri.....	125
Xamzaev A.N. Mamlakatimizda kapital bozorini rivojlantirish yo‘llari.....	131
Xamzaev A.N., Mirzajonov M. Mamlakatimizdagi xususiy korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish yo‘llari.....	136

Raximova L.Sh. Innovatsion iqtisodiyot sharoitida ayollar tadbirkorligining roli va uning turmush farovonligiga ta'siri.....	141
Nosirov S.N. ESG tamoyillarini joriy etish orqali sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini oshirish mexanizmlari.....	146
Maxkamov X.M. Tijorat banklarida muammoli kreditlar ulushini kamaytirishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.....	150
Hamrakulova M.F. Sanoat korxonalarida innovatsion boshqaruv mexanizmlarining mahsulot sifati va bozor raqobatbardoshligiga ta'siri.....	153
Mirzayeva L.S. O'zbekiston qimmatli qog'ozlar bozoridagi aksiyalar likvidligini oshirish yo'llari.....	157
Очилов Ж.Ж. Инновацион ривожланишда кичик бизнес фаолияти экотизимининг роли..	160
Usubjonov Z.V. Qurilish materiallari bozori mohiyati va uning xususiyatlari.....	165
Bekmurodov N.X. Hududiy iqtisodiy rivojlanishning nazariy asoslari va konsepsiyalari.....	170
Yusupova M.B. Zamonaviy boshqaruv tizimi va strategik boshqaruv hisobi.....	175
Xudayberdiyev O.A. Globallashuv sharoitida elektron tijorat orqali tadbirkorlik subyektlarining xalqaro savdo munosabatlarini rivojlantirish mexanizmlari.....	179
Bo'stonova N.A. Andijon viloyatida kichik biznes subyektlarining salohiyatini tahlili.....	187
Bo'stonova N.A., Nematjonova R.D. O'zbekistonda aholining daromadlari va iste'mol xarajatlarining biznes rivojlanishiga ta'siri.....	192
Hamidova Sh.O. Sanoat korxonalarida mehnatni tashkil etish va boshqarish samaradorligi tahlili.	196
Abdullayeva Z.S. Maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatining ijtimoiy va institutsional samaradorligi.	199
Duvshatova N.K. Hududlararo iqtisodiy nomutanosiblikni tartibga solishda investitsion yondashuvlarning samaradorligi.....	203
Усманова А.Б. Цифровая составляющая устойчивого развития региональной туристской системы (на примере Бухарской области).....	207
Qidirniyozov A.Sh. Uy-joy qurilishida kapital qo'yilmalar hajmi va yakuniy natijalar o'rtasidagi bog'liqlikni ekonometrik modellashtirish.....	213
Dexkanova Sh.K. Aylanma iqtisodiyotning barqaror rivojlanishdagi ro'li.....	217
Gulimboyev S.I., Rejapov X.X. Aholining farovonligini ta'minlashda ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning o'rni.....	221
Mamatov B.S. O'zbekistonning investitsion imkoniyatlari: asosiy tendensiya va natijalar.....	226
Kamoldinova N.A. Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish – ular bandligini ta'minlashning asosi.	231
Aminboyev J.O. Amortizatsiya hisobida foydali xizmat muddatini aniqlash: nazariy va amaliy yondashuvlar.....	235
Maxramova N.Y. Strategik menejmentda kadriyatlar zanjiri: raqobatbardoshlikni oshirishning konseptual asoslari.....	241
Usmanova S.S. Innovative development of the pharmaceutical industry.....	245
Faxriddinova N.N. Yashil tadbirkorlik va uning iqtisodiyotdagi o'rni.....	250
Захирова Г. Тиббий туризм хизматлари бозори ривожланишининг хориж тажрибаси.....	254
Абдуллоев А.Ж. Барқарор ривожланиш стратегияси асосида минтақавий саноатлашувни амалга оширишнинг хорижий мамлакатлар амалиёти.....	258
Sharapova N.K. Hududlarni barqaror rivojlantirish dasturlarini xalqaro standartlar tizimiga moslashtirish imkoniyatlari.....	264
Rahmatullayeva D.O. Demografik omillar va bandlik samaradorligi o'rtasidagi munosabatlar..	272

BANK TIZIMI TARIXI VA RIVOJLANISHI

ИСТОРИЯ И РАЗВИТИЕ БАНКОВСКОЙ СИСТЕМЫ

HISTORY AND DEVELOPMENT OF BANKING SYSTEM

Akbaraliyeva Diyora O‘zbekiston Milliy universiteti, Iqtisodiyot fakulteti talabasi
Ilmiy rahbar: **Mirzamahmudova Madina** dotsent v.v.b. PhD

Annotatsiya

Ushbu maqolada xorijiy mamlakatlarda banklar va bank tizimining qanday tashkil topganligi o‘rganib chiqilgan. Xususan, O‘zbekistondagi bank tizimi va uning rivojlanish evolyutsiyasi tahlil qilingan. Bank tizimining samarali ishlashi iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash va iqtisodiy o‘shni rag‘batlantirishda muhim rol o‘ynashini hisobga olgan holda, mamlakatimizdagi bank xizmatlarini yanada rivojlantirish borasida xulosalar berib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: bank, foiz, foyda, kredit, lizing, daromad, tijorat banklari, Markaziy bank.

В этой статье были созданы в зарубежных странах банки и банковская система. В частности, банковская система в Узбекистане и ее разработка анализируется. Учитывая эффективную работу банковской системы, выводы были сделаны о дальнейшем развитии банковских услуг в стране.

Ключевые слова: банк, процент, выгода, кредит, лизинг, доход, коммерческие банки, Центральный банк.

In this article, in foreign countries, banks and the banking system have been established. In particular, the banking system in Uzbekistan and its development is analyzed. Given the effective operation of the banking system, conclusions have been given on further development of banking services in the country.

Keywords: bank, percent, profit, credit, leasing, income, commercial banks, Central bank.

Banklar iqtisodiyotning ajralmas qismlaridan biridir. Ular nafaqat moliyaviy xizmatlarni taqdim etish, balki iqtisodiy o‘shni ta‘minlash, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, hamda davlat va xususiy sektorda muhim ro‘l o‘ynashda katta ahamiyatga ega. Dastlabki banklar qachon va qanday paydo bo‘lganligini aniqlash qiyin. Hozirgi davrda banklar faoliyati xususiyatidan kelib chiqib, turlicha operatsiyalarni bajaruvchi universal moliyaviy tashkilotlarni o‘zida namoyon qiladi. Masalan, birinchi darajali toifaga kiruvchi chet el banklar o‘z mijozlariga 300 dan ortiq turli xil xizmatlarni ko‘rsatadilar. Bu operatsiyalarning va xizmatlarning barchasi bir vaqt va bir joyda paydo bo‘lmaganligi sababli ham bank ishining “boshlang‘ich” nuqtasini aniqlash aniq tadqiqotlar olib borishni va ular asosida ma‘lum bir fikrlarni mujassamlashtirishni talab qiladi. Banklar faoliyatining eng “qadimgi” operatsiyalaridan biri- pullarni saqlab berish operatsiyasi hisoblanadi.

Ma‘lumki, eng qadimgi davlatlarda ham omonatlarni qabul qilish operatsiyalari mavjud bo‘lgan. Ilk bor bunday ish bilan obro‘ va ishonchga ega bo‘lgan puldor shaxslar, Yevropa mamlakatlarida cherkov muassasalari shug‘ullanganlar. Masalan, mashhur grek ehromlari (masalan, Delfiya, Efes ehromlari) bir paytning o‘zida bank muassasalari bo‘lib ham xizmat qilgan. O‘sha qadimgi davrlardan boshlab, qo‘yilgan pul yoki mulk bo‘yicha foizlar ham hisoblangan. Banklarning kelib chiqishiga oid mavjud adabiyotlarda banklar paydo bo‘lishining asosiy yoki boshlang‘ich bosqichi birinchidan, pul mablag‘larini saqlab berish bo‘lsa, ikkinchidan, pul mablag‘larini almashtirib berishdan iborat ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Pul ayirboshlash bo‘yicha ehtiyoj alohida paydo bo‘lgan. Bunga Yevropani yorqin misol qilib ko‘rsatish mumkin. O‘rta asrlarda tangalarning yagona tizimi mavjud bo‘lmagan. Savdo turli mamlakatlar, shaharlar, hatto alohida


shaxslarning tangalari orqali olib borilgan. Barcha tangalar turli vazn, shakl va nominalga ega bo‘lgan. Tangalar bilan shug‘ullanuvchi va ayirboshlashni olib bora oladigan mutaxassislar o‘z ayirboshlash stollari bilan qizg‘in savdo ketayotgan joylarda ish olib borishgan. Shu bois, “bank” so‘zi italyancha “banco” – “ayirboshlovchining oldidagi stol” degan ma‘noni anglatuvchi so‘zdan kelib chiqqan. Bunga o‘xshash operatsiyalar bundan ancha avvalgi davrlarda qadimgi Gretsiya, Rim, Sharqda amalga oshirilgan [2].

Pulni saqlash va ayirboshlash bo‘yicha operatsiyalar bilan shug‘ullanuvchi shaxslar yig‘ilgan boyliklar- pullar samarasiz, harakatsiz yotmasligi uchun mavjud mablag‘larning hech bo‘lmaganda bir qismini bo‘lsa ham vaqtinchalik foydalanishga berilsa, sezilarli foyda olish mumkinligini bilishgan. Shunday qilib, pullarni ma‘lum muddatga qaytarish va foiz to‘lash shartlari bilan garov asosida beriladigan ssuda (kredit) operatsiyalari paydo bo‘lgan. Bunda garov sifatida uylar, kemalar, qimmatbaho buyumlar, chorva mollari, qullar qabul qilingan. Bir bank, aniqrog‘i, pulni saqlab beruvchi xizmatidan o‘zaro hisob-kitoblar bilan bog‘langan bir necha shaxslar foydalanishi mumkin bo‘lgani uchun asta-sekin mijozlarga hisob-kitob xizmatini ko‘rsatish operatsiyalariga ehtiyoj paydo bo‘la boshladi. Dastavval ular quyidagicha amalga oshirilgan: Har bir omonatchi pulni saqlab beruvchida uning ismi yozilgan jadval shaklidagi o‘z hisob varaqasiga ega bo‘lgan. Bu jadvalda pullarning harakati (kirim yoki chiqim) aks ettirilgan. Butun operatsiya pulni saqlab beruvchi banker-omonatchining og‘zaki yoki yozma buyrug‘i bilan amalga oshirilgan. Bunda mos o‘zgarishlar o‘zaro hisob-kitoblarda ishtirok etuvchi shaxslar jadvallariga kiritilgan. Bu eng soda xizmatlar naqd pulsiz hisob-kitoblarning dastlabki shakllarini tashkil qilgan. Yuqoridagi barcha operatsiyalar dastlab alohida mavjud bo‘lgan va keyinchalik ular bank deb nomlangan bir xil tashkilotlar chegaralarida birlashganlar. Monte dei Paschi di Siena – dunyodagi eng qadimgi ishlaydigan bank hisoblanadi. XIX asrda bank sektori yanada jadal rivojlana boshladi. Sanoat inqilobining boshlanishi kreditlash hajmini oshirishni talab qildi va kredit berish uchun yirik banklar tashkil etildi. Shu paytdan boshlab bank tizimi o‘zgaruvchan iqtisodiy sharoitlarga mos ravishda rivojlanish davom etmoqda. Bank tizimi tarixidagi eng muhim davrlardan biri bu – 1929-yildagi inqiroz hisoblanadi. Ushbu inqiroz banklarning global qulashiga sabab bo‘ldi. Ko‘pgina banklar o‘z eshiklarini yopishga majbur bo‘lishdi, bu esa bank tizimining qisqarishiga olib keldi. Ikkinchi jahon urushi davrida dunyoning barcha asosiy kuchlari iqtisodiyotga faol aralashishga majbur bo‘ldilar va bank tizimini jadal tartibga solishni boshladilar.

XX-asrning oxirida bozor iqtisodiyotiga sodiq qolgan mamlakatlarning aksariyati bank tizimini to‘liq tartibga solishdan voz kechdi. Bu banklarga raqobatbardosh bo‘lish va yuqori daromad olish imkonini berdi. G‘arbiy Yevropada oddiy ayirboshlash idoralaridan bank uylariga o‘tish jarayoni XVI-XVII asrlarda boshlangan. Ko‘pchilik iqtisodchilar bank mohiyatini ssuda(kredit) operatsiyalarida ko‘rishga moyildir. Shuni hisobga olish kerakki, har bir davlatda bank faoliyatining qonuniy ta‘riflari o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Shunday qilib, bank ishining asrlik an‘analariga ega bo‘lgan Angliyada 1979-yilda “Banklar to‘g‘risida” yangi qonun qabul qilindi. Unda “bank” atamasining ta‘rifiga alohida e‘tibor berilgan [2]. Britaniyalik qonun chiqaruvchilar bank ta‘rifini ancha soddalashtirganlar, ya‘ni ular bank deganda, Angliya Davlat Banki bank deb tan olgan har qanday kompaniya tushunilishi mumkinligini qayd etganlar. O‘z navbatida, Angliya Davlat Banki jahon tajribasi nuqtai nazaridan umum tan olingan bank xususiyatlariga ega bo‘lgan mezonlarni o‘rnatgan. Xususan, bank maqomiga da‘vo qiluvchi kompaniya omonatlar qabul qilayotgani, kreditlar berayotgani, eksport-import moliya operatsiyalarini amalga oshirayotganligi, valyuta ayirboshlayotganligi, investitsion xizmat ko‘rsatayotganligi va moliya bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha maslahatlar berayotganligini isbot qilishlari ham kerak.

Uzoq yillar davomida jamiyatning rivojlanishi va unga mos tovar-pul munosabatlarining o‘sib, takomillashib borishi banklarning operatsiyalari va ko‘rsatadigan xizmatlari ko‘lamining kengayib borishiga, jamiyat a‘zolarining pulga bo‘lgan talabining oshib borishiga olib kelgan. Davlat, jismoniy va yuridik shaxslarning manfaatlarini muvofiqlikda olib borish, davlat va jamiyat a‘zolarining pul mablag‘lariga bo‘lgan talablarini qondirgan holda davlatning iqtisodiy jihatdan o‘sishi va barqarorligini ta‘minlash maqsadida banklar o‘rtasida bajariladigan funksiya va operatsiyalar ko‘lami taqsimlana borgan, ya‘ni davlat nomidan, davlat manfaatlarini himoya qilgan holda faoliyat

ko‘rsatuvchi banklar va alohida jamiyat a‘zolari bilan ishlovchi banklar yoki yuqoridagi ikki yo‘nalishni ham o‘zida mujassamlashtirgan banklar (oxirgisiga sobiq sovetlar davridagi Davlat banklarini kiritish mumkin) shakllana borgan. Hozirgi davrda jahonda umum qabul qilingan tizim bo‘lib, ikki pog‘onali bank tizimi xizmat qiladi va u davlat Markaziy banki va tijorat banklar tarmog‘ini o‘z ichiga oladi [1].



1-rasm. Banklarning tuzilishi

Manba: Muallif ishlanmasi

Markaziy Bank bank va moliya muassasalari faoliyatining barqarorligini ta‘minlaydi. Birinchi navbatda, u ko‘pchilik moliya institutlari, banklarning faoliyatida moliyaviy jihatdan muammolar yuzaga kelganida, banklar omonatchilar oldidagi o‘z majburiyatlarini bajara olmay qolgan holda moliyaviy sarosima paydo bo‘lishining oldini olishi kerak. Bu masalani hal qilish uchun Markaziy bank, avvalo, tartibga solish va nazorat qilish funksiyalarini ikkinchi pog‘ona-tijorat banklari tizimiga nisbatan bajaradi. Tijorat banklarining har kunlik faoliyatiga aralashish Markaziy bank majburiyatiga kirmaydi. Markaziy bank tijorat banklarining me‘yoriy boshqarilishi, ularning to‘lovga qobiliyatliliigi va likvidliliigi ta‘minlanishini kuzatib borishi va omonatchilar manfaatlarini himoya qilishi kerak.

Bank tizimining ikkinchi pog‘onasi bu–xalq xo‘jaligi va aholiga xizmat ko‘rsatishda bosh bo‘g‘in hisoblangan mustaqil tijorat banklarining tarmog‘idir. Ular yuridik va jismoniy shaxslarga shartnoma asosida turli hisob-kitob va kredit operatsiyalarini amalga oshirish va xizmatlar ko‘rsatish hamda boshqa turli bank xizmatlarini ko‘rsatish bilan bog‘liq operatsiyalarni amalga oshiradilar.

Har bir mamlakatda tijorat banklarining soni turlicha bo‘lishi mumkin. Masalan, Shvetsiyada Davlat banki 40 ga yaqin tijorat banki faoliyatini nazorat qiladi, xolos, AQSHda 13 mingga yaqin tijorat banklari mavjud bo‘lsa, Shvetsariyada har 10 ming aholiga bittadan moliya muassasasi to‘g‘ri keladi. Rossiyada 1995-yil boshiga kelib, Rossiya Markaziy banki tomonidan bank operatsiyalarini amalga oshirish litsenziyasiga ega bo‘lgan 2486 ta tijorat banki qayd qilingan.

1991-yilning 1-sentyabrida Respublikamiz mustaqilligining e‘lon qilinishi butun dunyo mamlakatlari tomonidan tan olingan bozor iqtisodiyoti dastaklarini bizning respublikamizga ham kirib kelishiga zamin yaratdi. Shuning uchun ham respublikamizdagi bozor iqtisodiyoti talablariga mos keluvchi zamonaviy bank tizimini yaratish zaruriyati tug‘ildi. Mustaqillikka erishilgunga qadar O‘zbekistondagi bank muassasalari sobiq ittifoq bank tizimi tarkibiy qismiga kirar edi. Shu bilan birga bu banklar sobiq ittifoq bank tizimi doirasidan tashqarida faoliyat ko‘rsata olmasdilar.

Bank tizimi 3 turdagi banklarni: SSSR Davlat banki, SSSR Qurilish banki va SSSR Tashqi savdo bankini o‘z ichiga olardi. Sobiq ittifoq bank tizimida Davlat banki monopol mavqega ega bo‘lib, u bir vaqtning o‘zida emissiya instituti, qisqa muddatli kreditlashtirish, xo‘jaliklarga hisob-kitob operatsiyalari bo‘yicha xizmat ko‘rsatuvchi markaz hisoblanardi. Ham emissiya funksiyalarini, ham hisob-kitoblar va kreditlar bo‘yicha mijozlarga xizmat ko‘rsatish funksiyalarini bajarishga monopollashuvi Davlat bankini davlat boshqaruv va nazorat organiga aylantirgan. Ma‘muriy buyruqbozlik davrida kredit munosabatlari iqtisodiyotni boshqarishda shaklan yuzaki xarakterga ega edi.

Kredit resurslari va pul resurslari harakatini ham boshqarish, ham nazorat qilish davlat bankingning monopol ta‘siri ostida edi. Bular o‘z navbatida, bank tizimining tor doirada rivojlanishiga olib keldi. Markazlashtirilgan bank boshqaruvi asosida faoliyat ko‘rsatgan respublika banklari tor doirada pul resurslari harakatini boshqarar, lekin uni boshqaruvchiligini nazorat qilish sobiq Ittifoq Davlat banki qo‘lida edi. Iqtisodiyotni boshqarishning markazlashtirilgan usulidan voz kechish va

bozor iqtisodiyoti tomon dastlabki qadamlar qo‘yilishi bilanoq markazlashtirilgan bank tizimining qator kamchiliklari ro‘yobga chiqdi. Bu esa, bank tizimida tub o‘zgarishlarni amalga oshirishni talab etardi. 1987-yilda bank tizimini qaytadan tashkil etish boshlandi. Bu jarayonda bank tizimining tashkiliy tuzilmasini o‘zgartirish, banklarning rolini oshirish, iqtisodiy tizimning rivojlanishiga ularning ta‘sirini kuchaytirish, kreditni harakatdagi iqtisodiy dastklarga aylantirish ko‘zda tutilgandi. Qayta tashkil etish jarayonining birinchi bosqichi Davlat bankining yangi tuzilmasini ishlab chiqishdan iborat edi. Qayta tashkil etish modeli quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Ikki bosqichli bank tizimini vujudga keltirish: Markaziy emission bank va bevosita xo‘jaliklarga xizmat ko‘rsatuvchi ixtisoslashgan davlat banklari;

- Ixtisoslashtirilgan banklarni to‘laligicha xo‘jalik hisobiga va o‘z-o‘zini moliyalashga o‘tkazish;

- Iqtisodiy tizim doirasida yuridik va jismoniy shaxslar bilan bo‘ladigan kredit munosabatlari, uslublari va shakllarini takomillashtirish va boshqalar.

Bank tizimini takomillashtirish jarayoni davomida davlat banki o‘zining kredit tizimidagi markaziy o‘rnini saqlab qolgan holda korxonalar va tashkilotlarga kredit berish va ular bilan hisob-kitoblarni olib borish funksiyasini maxsus ixtisoslashgan banklarga topshirdi. Ya‘ni bankning emission faoliyatini kreditlash faoliyati bilan birga olib borish funksiyasiga chek qo‘yildi. Davlat banki ixtisoslashgan banklar faoliyatini boshqaruvchi, barcha banklar uchun bir xil pul-kredit siyosatini olib boruvchi muassasaga aylandi.

Bank tizimining takomillashtirilishi natijasida vujudga kelgan maxsus ixtisoslashgan banklar: Sanoat qurilish banki, Kommunal qurilish va sotsial taraqqiyot banki, Agrosanoat banki, Tashqi iqtisodiy faoliyat banki, Jamg‘arma banki tashkil qilinib, xo‘jaliklar bilan banklar o‘rtasidagi aloqalar tobora yaqinlashdi, ixtisoslashtirilgan davlat banklari o‘zlarida ma‘lum darajada boshqaruvchilik rolini saqlab qoldilar. Bank tizimini takomillashtirish jarayonida juda muhim natijalarga erishildi, lekin tashkil qilingan banklar iqtisodiy munosabatlarning xususiyatlarini to‘liq ifoda qilolmasdi, shuning uchun ham bank tizimini yanada takomillashtirish obyektiv zaruratga aylandi.

1988-yildan boshlab, ikki bosqichli bank tizimi tashkil etila boshlandi, lekin bu davrda markazlashtirilgan rejalashda Markaziy bankning roli hali ham yuqori, sohalarning deyarli hamma qismi davlat taassarfida edi.

1991-yil 15-fevralda qabul qilingan “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonun asosida O‘zbekiston Respublikasida ikki bosqichli bank tizimini tashkil etish g‘oyasi yuzaga keldi [3]. Bu qonunga asosan Davlat boshqaruv organlari Respublika Markaziy banki faoliyatiga aralashmasliklari kerak edi. U faqat Respublika Oliy majlisiga hisobot berishi kerak. Bu qonunni amalga tatbiq etish, asosan, Respublikamiz mustaqillikni qo‘lga kiritgandan so‘ng boshlandi. O‘zbekiston bozor iqtisodiyotiga o‘tishning bosqichma-bosqich yo‘lini tanlaganligi bois, 1-bosqichdagi pul-kredit siyosati sohasidagi asosiy vazifalar quyidagilardan iborat qilib qo‘yilgan:

- Markaziy bank boshchiligidagi keng tarmoqli mustaqil tijorat va xususiy banklarni o‘zida mujassamlashtirgan ikki bosqichli bank tizimini vujudga keltirish, Respublika hududida yirik chet el banklarining bo‘limlari va vakolatxonalarini ochish uchun qulay sharoit yaratish;

- Barqaror pul muomalasini ta‘minlash;

- Kredit va naqd pul massasining asossiz o‘sishini keskin cheklash;

- O‘zbekiston Respublikasining milliy pulini muomalaga kiritish uchun zarur iqtisodiy va tashkiliy shart-sharoitlar, hamda imkoniyatlarni yaratish va boshqalar.

Shunday qilib, O‘zbekistonda mustaqil bank tizimini yaratishning birinchi bosqichi, milliy valyutani muomalaga kiritish uchun asos yaratilgan va ikki pog‘onali bank tizimining poydevori qurilgan 1991-yildan 1994-yilgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Bu davrda mamlakatimizning mustaqil bank tizimini yaratish bo‘yicha olib boriladigan tadbirlar 1991-yil 15-fevralda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida” qonuni asosida amalga oshirildi. Mazkur Qonun bozor munosabatlariga o‘tish davri vazifalariga mos keluvchi bank muassasalari shakllanishining huquqiy asoslarini belgilab berdi. Ushbu Qonunga muvofiq sobiq Ittifoq Davlat bankining Respublika muassasasi asosida O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki


tuzildi va unga respublikada pul muomalasini tartibga solish, tijorat banklari tizimini vujudga keltirish va to‘lov tizimini tashkil etish vazifalari yuklatildi.

Xalq xo‘jaligining turli sohalarini kreditlash va ularni investitsiyalash funksiyalari yangidan tashkil qilingan ixtisoslashtirilgan tijorat banklariga berildi. Mustaqil pul va bank tizimini yaratishning ikkinchi bosqichi milliy valyuta muomalaga kiritilgan va ikki pog‘onali bank tizimining huquqiy asoslari yaratilgan 1994-1996-yillarni o‘z ichiga oladi. 1994-yilda milliy valyuta so‘mning kiritilishi mamlakatimizda mustaqil pul va bank tizimi shakllanishining asosiy bosqichi hisoblanib, bu bosqichda banklar oldida turgan vazifalarga yanada aniqlik kiritildi. Bu davrda Markaziy bank asosiy e‘tiborini makroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashga va shu asosda iqtisodiy o‘sish uchun qulay sharoitlar yaratishga qaratdi, mamlakatda sifat jihatidan butunlay yangi to‘lov tizimini yaratish bo‘yicha chora-tadbirlar belgilandi.

Ixtisoslashgan tijorat banklari faoliyatini rivojlantirishda Vazirlar Mahkamasining “Bank tizimini takomillashtirish va pul-kredit munosabatlarini barqarorlashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 1994-yil 18-martdagi Qarori muhim ahamiyatga ega bo‘lib, unda banklarning axborot infratuzilmasini yaratish va xalqaro bank amaliyotining ilg‘or usullarini Respublika bank amaliyotiga qo‘llash orqali bank tizimini takomillashtira borish bo‘yicha yo‘l-yo‘riqlar belgilab berildi.

1994-yildan boshlab yangi buxgalteriya hisobi tizimini ishlab chiqish va ularni banklarga tatbiq qilish jarayoni boshlandi. 1996-yilda Respublika Prezidentining “Bank auditi tizimini rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoniga asosan, bank tizimida buxgalteriya hisobining xalqaro andozalarini joriy qilish jarayoni yanada takomillashtirildi va jahonning nufuzli auditorlik kompaniyalaridan “Artur Andersen”, “Deloyt end tush”, “Key Pi EmJi(KPMG)”, “Ernest end Yang”, “Kupers end Laybrand” kabilar yetakchi tijorat banklari faoliyatini audit qilishga taklif qilindi [1].

Bank tizimini shakllantirishning uchinchi bosqichi 1997-2000-yillarni o‘z ichiga olib, unda banklarni xususiylashtirish va aksiyadorlik-tijorat banklarida boshqaruvning sifatini oshirish, banklar faoliyatida nazoratni kuchaytirish ko‘zda tutiladi. Bu jarayon O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil 24-apreldagi “Xususiylashtirish tijorat banklari tashkil qilishni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonining qabul qilinishi bilan yanada faollashadi. Mazkur Farmonga ko‘ra, nizom jamg‘armasida jismoniy shaxslarning ulushi 50 foizdan kam bo‘lmagan holda tijorat banklarini ochish uchun bir qator imtiyozlar belgilangan edi. Natijada so‘nggi yillar ichida xususiylashtirish banklarning soni keskin ko‘payib, bank operatsiyalarini amalga oshirish uchun dastlabki ruxsat berilganlari bilan qo‘shilib hisoblaganda 40 ga yaqinlashmoqda.



2-rasm. Banklarning ustav kapitalidagi davlat ulushini xususiylashtirish tartibi [4]

Hozirgi paytda respublikada faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat banklarining deyarli yarmi xususiylashtirish banklari hisoblanadi. Bank tizimiga xususiylashtirish kapitalni jalb etish bilan birga, banklarni korporativ boshqarish tizimini yanada mustahkamlashga doir chora-tadbirlar ham amalga oshirildi. Ushbu Farmon asosida amalga oshirilgan islohotlar natijasida mamlakatimizda har tomonlama mustahkam bank tizimi, xalqaro andozalarga mos keluvchi zamonaviy bank nazorati va banklar faoliyatini tartibga solishning samarali mexanizmi yaratildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 2024-yil 16-dekabr kuni banklar ishtirokida mahallalarda aholi bandligini ta’minlash va daromadli qilishga qaratilgan ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan videoselektor yig’ilishi o‘tkazildi [5]. Unda, so‘nggi yillarda banklar faoliyati mahallagacha tushirilgani o‘z natijasini beryapti. Xususan, Namangan viloyati Uychi tumanida banklar 3 ming 200 ta faol mijoz bilan ishlab, ularga yordam bergani uchun 9 ming odam doimiy ishli bo‘ldi. Kambag‘allar soni 6 mingga kamaydi. Sirdaryo viloyati Sayxunobod tumanidagi 3 ming 200 ta xonadonda loyihalar ishga tushirildi, 12 ming odam o‘z tomorqasida daromad topishni o‘rgandi. Jizzax viloyati Zarbdor tumanida 13 ming 500, Buxoro viloyati G‘ijduvon tumanida 28 ming ish joyi yaratildi. Bularning hisobiga qo‘shimcha 10 mingdan ziyod aholi kambag‘allikdan chiqarildi. Umuman, mazkur 4 ta – Uychi, Sayxunobod, Zarbdorva G‘ijduvon tajribalari doirasida yil boshidan buyon 3 million 300 ming aholi doimiy daromadga ega bo‘lgan. Jami rasman band bo‘lganlar ilk bor 10 million 500 ming nafarga yetgan.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi kunda mamlakatimizda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshchiligida 40 ga yaqin tijorat banklarini o‘z ichiga oluvchi bank tizimi yuqorida belgilangan vazifalarni amalga oshirib, bozor islohotlarining faol qatnashchilari sifatida faoliyat olib bormoqda. Tijorat banklarining faoliyatini rivojlantirish uchun yangi texnologiyalarni joriy etish ya’ni hozirgi kunda mijozlar raqamli va onlayn xizmatlarga talabni oshirmoqda. Banklar mobil ilovalar, internet banking va elektron to‘lov tizimlarini rivojlantirishi lozim. Blokcheyn texnologiyasini bank xizmatlarida qo‘llash, tranzaksiyalarni yanada xavfsiz va tezkor amalga oshirish imkonini beradi. Bundan tashqari, mijozlarga xizmat ko‘rsatishni optimallashtirish, innovatsion mahsulotlar va xizmatlarni ishlab chiqishlari lozim deb o‘ylayman. Bank tizimi o‘sishda va rivojlanishda davom etadi, bu bizga kredit kartalaridan tortib, elektron hisoblargacha bo‘lgan ko‘plab vositalarni taqdim etadi. Bank tizimi oddiy odamlarning biznesiga, iqtisodiyotiga va hayotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdullayeva Sh.Z. Bank ishi. Darslik. T.: Iqtisod-moliya nashriyoti, 2017 732 b.
2. Z. Mamadiyarov, M. Mahmudova, M. Kurbonbekova. Bank ishi. Darslik. – T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot matbaa uyi, 2021-160 b.
3. I. Toymuhammedov. Bank ishi. O‘quv qo‘llanma. T.: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2005-144 b.
4. Gazeta.uz sayti. <https://www.gazeta.uz/ru/2021/12/01/bank-system/>
5. Prezident rasmiy sayti. <https://president.uz/uz/lists/view/7769>